

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
<p data-bbox="163 400 698 616">“Men O‘zbekistonda yashayapman” – yoshlarning fuqarolik birdamligi va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqa laboratoriyasini yaratish</p> 	<p data-bbox="801 357 1182 392">Tadqiqot shakli: Amaliy.</p> <p data-bbox="801 397 1193 432">Ilmiy tadqiqot natijalari:</p> <ul data-bbox="725 437 2078 1493" style="list-style-type: none"><li data-bbox="725 437 2078 517">– Respublika va hududlar kesimida tahliliy hisobot (segmentatsiya, indikatorlar) ishlab chiqiladi;<li data-bbox="725 521 2078 719">– O‘zbekiston yoshlarining jamiyat hayotidagi ishtiroki va ijtimoiy faollik darajasini baholash uchun aniq o‘lchanadigan va tizimli monitoring qilinadigan ko‘rsatkichlar bazasi shakllantiriladi hamda bu tizim deklarativ yondashuvlardan voz kechib, davlatning yoshlar siyosati samaradorligini aniq tahliliy ma‘lumotlar asosida boshqarish imkonini beradi.<li data-bbox="725 724 2078 804">– Fuqarolik birdamligi bo‘yicha “narrativ/normativlar” to‘plami (gayd) tayyorlanadi;<li data-bbox="725 809 2078 888">– Yoshlarning fuqarolik o‘zligini anglashi va ularning jamiyat hayotidagi ishtirok etish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ta‘lim modullari ishlab chiqiladi<li data-bbox="725 893 2078 1043">– Mamlakat davlat va xususiy oliy ta‘lim muassasalarining faol talabalaridan iborat tarmoq yaratiladi hamda ularni jamiyat hayotiga faol jalb qilish choralari ko‘riladi (vazirlik va idoralar huzuridagi jamoatchilik kengashlari, yoshlar forumlari, strategik sessiyalar, maslahat maydonchalari va h.k.);<li data-bbox="725 1048 2078 1198">– Xorijdagi o‘zbek yoshlari bilan aloqa o‘rnatish maqsadida uch tilda (o‘zbek, ingliz va rus tillarida) videoroliklar, postlar, mem/vayn formatidagi materiallar, infografikalar tayyorlanadi. Mazkur vizual va media kontent yoshlar, jumladan xorijdagi o‘zbek diaspora vakillari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovlar ma‘lumotlari asosida yaratiladi;<li data-bbox="725 1203 2078 1283">– Vizual reklama maketlari va jamoat joylari uchun kommunikatsiya konsepti ishlab chiqiladi;<li data-bbox="725 1287 2078 1367">– Ta‘lim muassasalari uchun amaliy qo‘llanmalar va dars modullari ishlab chiqiladi (umumta‘lim maktablari va OTMLar uchun);<li data-bbox="725 1372 2078 1493">– Eko-aksiyalar, fuqarolik tashabbuslari (“Men pora olmayman” va b.), qonunbuzarlikka murosasizlik madaniyatini o‘z ichiga olgan fuqarolik loyihalari piloti yaratiladi;

- Xorijdagi o'zbekistonlik yoshlar uchun kichik pilot loyihalar, jumladan, onlayn mentorlik dasturlari va o'zbek madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha qo'shma ijtimoiy aksiyalar yo'lga qo'yiladi, bu kabi tashabbuslar faqat ramziy identifikatsiyani emas, balki jamiyat hayotida haqiqiy ishtirok amaliyotini shakllantiradi;

- Sayt/platforma va **ochiq materiallar bazasi shakllantiriladi**;

- Mamlakat ichidagi va xorijdagi yoshlarni birlashtiradigan **barqaror raqamli o'zaro hamkorlik platformalarini shakllantirish** choralari ko'riladi (onlayn hamjamiyatlar, ta'lim vebinarlari, munozara klublari, qo'shma tadqiqot va volontyorlik tashabbuslari), bu esa yoshlarning haqiqatan

qiziqish uyg'otadigan mavzulari bo'yicha doimiy muloqot kanallarini yaratadi;

- Loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini baholash maqsadida jarayondan oldingi va keyingi ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlil qiluvchi hisobot, **tavsiyalar ishlab chiqiladi**.

Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar pilot tarzida tanlab olingan ta'lim muassasalari, jumladan, umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi yoki Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasining** xulosasi olinadi.

Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi

Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi yoki Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasining** qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.